

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari


2025- yil yanvar-dekabr

- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yilning yanvar-dekabr oylaridagi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra (*norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda*), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 050,3** trln so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yil bilan solishtirilganda **14,7** %ga oshdi.

Ma'lumot uchun: 2024- yilda xizmatlar hajmi **840,1** trln so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2023- yil bilan solishtirilganda **13,3** %ga o'sdi.



II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **37,8** %, ya'ni **397,4** trln so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yil bilan solishtirilganda ushbu hududda **17,7** %ga oshgan. Toshkent shahridan tashqari, viloyatlar kesimida eng yuqori hajm Samarqand (**78,2** trln so'm, ya'ni, bozor xizmatlari umumiy hajmining **7,4** %ini egalladi), Toshkent (**71,8** trln so'm, **6,8** %), Farg'ona (**71,8** trln so'm, **6,8** %) va Namangan viloyatida (**56,3** trln so'm, **5,4** %) kuzatildi. Sirdaryo viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **14,6** trln so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,4** %ini tashkil etdi.

¹ 2021-2024- yillar va 2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-dekabr

	Hajmi, trln so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi ²	1 050,3	100,0	114,7
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	35,2	3,4	113,7
Andijon viloyati	54,0	5,1	114,7
Buxoro viloyati	42,6	4,1	114,0
Jizzax viloyati	24,6	2,3	114,7
Qashqadaryo viloyati	54,1	5,2	113,6
Navoiy viloyati	25,7	2,5	113,7
Namangan viloyati	56,3	5,4	115,4
Samarqand viloyati	78,2	7,4	115,9
Surxondaryo viloyati	35,6	3,4	114,1
Sirdaryo viloyati	14,6	1,4	113,4
Toshkent viloyati	71,8	6,8	115,2
Farg'ona viloyati	71,8	6,8	114,4
Xorazm viloyati	36,9	3,5	115,2
Toshkent shahri	397,4	37,8	117,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahridan tashqari respublikaning boshqa hududlarida, xususan, Samarqand (**115,9 %**), Namangan (**115,4 %**), Toshkent (**115,2 %**), Xorazm (**115,2 %**), Andijon (**114,7 %**) va Jizzax (**114,7 %**) viloyatlarida kuzatildi.

Bu ko'rsatkich 2024- yil bilan solishtirganda nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Sirdaryo viloyatida (**113,4 %**) qayd etildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **27,7** mln so'mni tashkil etdi. 2024- yildagi (**22,6** mln so'm) ko'rsatkichga nisbatan **5,1** mln so'mga, ya'ni **12,5 %**ga o'sish qayd etildi.

Hududlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, **126,3** mln so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yil bilan solishtirganda **25,6** mln so'mga (**15,1 %**) oshdi. Shuningdek, nisbatan yuqori hajmni Navoiy (**23,3** mln so'm), Toshkent (**22,9** mln so'm) va Buxoro (**20,4** mln so'm) viloyatlari egalladi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida (**11,9** mln so'm) qayd etildi.

² Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari**
2025- yil yanvar-dekabr

	Hajmi, mln so'mda	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	27,7	112,5
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	17,2	112,3
Andijon viloyati	15,5	112,6
Buxoro viloyati	20,4	112,2
Jizzax viloyati	15,9	112,5
Qashqadaryo viloyati	14,7	111,2
Navoiy viloyati	23,3	111,8
Namangan viloyati	17,8	113,1
Samarqand viloyati	18,0	113,6
Surxondaryo viloyati	11,9	111,5
Sirdaryo viloyati	15,6	111,4
Toshkent viloyati	22,9	113,2
Farg'ona viloyati	17,2	112,2
Xorazm viloyati	18,0	113,1
Toshkent shahri	126,3	115,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

Eng yuqori o'sish sur'ati Toshkent shahrida (**115,1 %**), Samarqand (**113,6 %**), Toshkent (**113,2 %**), Namangan (**113,1 %**), Xorazm (**113,1 %**), Andijon (**112,6 %**), Jizzax (**112,5 %**), Buxoro (**112,2 %**), Farg'ona (**112,2 %**) viloyatlarida, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida (**112,3 %**) qayd etildi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **595,1** trln so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **56,7 %**ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yil bilan solishtirganda **114,3 %**ni tashkil etdi.

Hududlar orasida kichik biznesning xizmatlar hajmidagi eng yuqori ulushi Farg'ona (**75,6 %**), Namangan (**75,1 %**), Surxondaryo (**75,0 %**), Qashqadaryo (**75,0 %**), Xorazm (**73,4 %**), Toshkent (**73,0 %**), Jizzax (**72,9 %**), Andijon (**72,8 %**), Buxoro (**71,0 %**) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**74,0 %**) kuzatilmoqda. Ushbu hududlarda bozor xizmatlari asosan kichik tadbirkorlik subyektlariga tayanadi. Shu bois u yanada moslashuvchan, biroq qonunchilikdagi o'zgarishlar va moliyalashtirish imkoniyatlariga nisbatan sezgirroq bo'ladi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlikning ulushi nisbatan past (**40,9 %**) bo'lishiga qaramay, kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi mamlakat bo'yicha eng yuqori bo'lib, **162,6** trln so'mni tashkil etdi.

Sirdaryo va Navoiy viloyatlari kabi qator hududlarda kichik tadbirkorlikning ulushi biroz pastroq. Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **9,8** trln so'mni, Navoiy viloyatida esa **14,9** trln so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari

2025- yil yanvar-dekabr

	Hajmi, trln so'mda	Jami hajmdagi ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	595,1	56,7	114,3
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,0	74,0	115,0
Andijon viloyati	39,3	72,8	111,7
Buxoro viloyati	30,3	71,0	116,8
Jizzax viloyati	17,9	72,9	113,2
Qashqadaryo viloyati	40,6	75,0	112,8
Navoiy viloyati	14,9	58,0	114,8
Namangan viloyati	42,3	75,1	114,9
Samarqand viloyati	50,9	65,1	113,8
Surxondaryo viloyati	26,7	75,0	113,0
Sirdaryo viloyati	9,8	67,1	113,7
Toshkent viloyati	52,4	73,0	115,1
Farg'ona viloyati	54,3	75,6	114,1
Xorazm viloyati	27,1	73,4	115,7
Toshkent shahri	162,6	40,9	115,6

III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan va ularni monitoring qilish ko'zda tutilgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga moliyaviy xizmatlar (**24,6 %**ga; umumiy o'sishga **4,0** foiz band hissa qo'shdi), savdo xizmatlari (**13,8 %**ga; **2,5** f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**10,4 %**ga; **2,3** f.b.), transport xizmatlari (**10,8 %**ga; **2,0** f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**22,7 %**ga; **1,5** f.b.), boshqa xizmatlar (**12,8 %**ga; **0,6** f.b.), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**10,4 %**ga; **0,4** f.b.), shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**14,2 %**ga; **0,3** f.b.) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning (**13,1 %**ga; **0,3** f.b.) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Ijara xizmatlari (**19,1 %**ga), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**13,5 %**ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (**12,3 %**ga) va shaxsiy xizmatlar (**12,3 %**ga) o'sib, **0,8** foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **21,6 %**, transport xizmatlari **17,9 %**, savdo xizmatlari **17,8 %**, moliyaviy xizmatlar **16,3 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **7,6 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,8 %** ulushni egalladi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

	Hajmi, trln so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2024- yil	2025- yil yanvar-dekabr	
Xizmatlar - jami	840,1	1 050,3	114,7
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	56,9	79,5	122,7
moliyaviy xizmatlar	135,8	171,9	124,6
transport xizmatlari	151,8	188,3	110,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	73,8	95,9	114,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	183,9	226,9	110,4
savdo xizmatlari	155,0	187,0	113,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	20,9	25,9	113,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	32,1	39,6	110,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	16,0	19,9	114,2
ijara xizmatlari	9,9	12,8	119,1
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	11,7	14,4	112,3
shaxsiy xizmatlar	15,6	19,9	112,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	10,5	13,1	113,5
boshqa xizmatlar	40,0	51,1	112,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2024- yilga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **43,0** trln so'mga oshib, **226,9** trln so'mni tashkil etdi. Uning o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, mazkur xizmatlar ulushi **95,9 %** darajasida qayd etildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi **188,3** trln so'mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari **50,9 %**, yoki **95,9** trln so'm hajm bilan ustunlik qiladi.

Transport xizmatlari hajmining o'sishi ichki va tashqi savdo faoliyati, logistika, turizm hamda elektron tijoratning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu yuk va yo'lovchilar tashishga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi.

Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi
2025- yil yanvar-dekabr



2024- yilga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda savdo xizmatlari hajmi **32,0** trln so'mga oshib, **187,0** trln so'mni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **53,2** %ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **32,3** %ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **14,5** %ni tashkil etdi.


2024- yilga nisbatan 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **36,1** trln so'mga oshib, **171,9** trln so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024- yil bilan solishtirganda **24,6** %ga o'sdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar ulushi **88,0** %ni tashkil etdi. Sug'urtalash bo'yicha xizmatlarning ulushi **7,3** % darajasida qayd etildi. Yordamchi moliyaviy xizmatlar esa **4,7** %ni tashkil etdi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **79,5** trln so'mni tashkil etdi. Mazkur tarmoqdagi eng katta ulushni kompyuter dasturlashtirish xizmatlari (**43,2** %) egalladi.

Shuningdek, ko'rib chiqilayotgan davrda aloqa va axborot xizmatlari umumiy hajmining telekommunikatsiya xizmatlari ulushi **31,3** %, axborot xizmatlari **15,5** %, noshirlik xizmatlari **7,1** % va boshqa xizmatlar **2,9** % ni tashkil etgani ta'kidlandi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi
2025- yil yanvar-dekabr, trln so'mda



Bu sohada dasturlashtirishning yuqori ulushi yangi AT-klaster paydo bo'layotganini ko'rsatadi. U qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi va eksport imkoniyatlarini oshiradi, ayniqsa autsorsing va dasturiy ta'minot ishlab chiqishga hissa qo'shadi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **39,6** trln so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **49,4** %ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**25,9** trln so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **95,7** % darajasida qayd etildi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **19,9** trln so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiy hajmining **52,8** %ini sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar tashkil etdi. Shifoxona muassasalari xizmatlari **31,2** %, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar esa **16,0** %.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu - xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlar bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinishi uchun, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi, real oldi-sotdi obyekti bo'lishi, narxi ishlab chiquvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), shartnoma narxlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan to'lov kunida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.



Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST (Milliy statistik tasniflagich) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Tayyorlash uchun mas'ul:
Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1281)

